



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 14-noyabr

164-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28,73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,21¹-moddalariga asosan tumanning dolzarb masalalari borasidagi tadbirlarni amalga oshirilishini ta‘minlashni tashkil etish maqsadida:

1. Tumanning dolzarb masalalari borasidagi tadbirlarni amalga oshirilishini ta‘minlashni tashkil etish maqsadida Bahor MFY Mindon qishlog‘i hududida IT-shaharchasi barpo etish xarajatlari uchun tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga 100 000,0 ming so‘m hamda Xitoy davlati delegatsiyasi a‘zolarini kutib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman hokimligiga 22 500,0 ming so‘m, jami 122 500,0 (bir yuz yigirma ikki mln. besh yuz) ming so‘m miqdorida mablag‘ mahalliy budgetning 2025-yilgi zaxira jamg‘armasi hisobidan ajratilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag‘ bo‘yicha tuzilgan tuman hokimligining hamda Obodonlashtirish boshqarmasining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (A.Nishonov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova)ga hamda Obodonlashtirish boshqarmasi (T.Isaqov)ga ajratilgan mablag‘ni maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T